



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUV XO'JALIGI VAZIRLIGI HAY'AT YIG'ILISHI BAYONI

2025-yil 2- iyun

№ 10

Toshkent sh.

Hay'at raisi	O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vaziri Sh.Xamrayev
Qatnashdilar:	T.Butunbayev, R.Qarshiyev, O'.Sheraliyev, Z.Ishpulatov, D.Xodjiaxmedov, M.Nadjimov, A.O'razkeldiyev
Ishtirok etganlar:	O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi raisining birinchi o'rinbosari M.Abdullayev, Bosh prokuror o'rinbosari J.Xatamov, Vazirlar Mahkamasining Investitsiyalar, eksport, savdo, qishloq va suv xo'jaligi masalalari kotibiyati bosh mutaxassisi F.Qo'ziyev
	Qatnashganlar:
Respublika studiyasida:	Vazirning o'rinbosarlari, vazirlik markaziy apparati boshqarma va mustaqil bo'lim boshliqlari, vazirlik tasarrufidagi respublika va tizim tashkilotlari rahbarlari <i>(ro'yxat bo'yicha)</i>
Hududiy studiyalarda:	Qoraqalpog'iston Respublikasi Suv xo'jaligi vaziri, irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari, Nasos stansiyalari va energetika boshqarmalari, Meliorativ ekspeditsiyalar, irrigatsiya tizim boshqarmalari, yirik gidrotexnik inshootlar va suv omborlari "Suvqurilishinvest" hamda tumanlar "Suv yetkazib berish xizmati" davlat muassasalari rahbarlari <i>(ro'yxat bo'yicha)</i>

Hay'at raisi kun tartibiga kiritilgan masala bilan hay'at yig'ilishi qatnashchilarini tanishtirdi va muhokamaga qo'ydi. Yig'ilish kun tartibi va ish reglamenti hay'at a'zolari tomonidan to'liq ovoz bilan tasdiqlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining 2025-yil 28-maydagi 03-PA 1/1-1705/23-sonli topshirig'i ijrosini ta'minlash, qishloq xo'jaligida suv va energiya manbalaridan oqilona foydalanish hamda yo'qotishlarni kamaytirish borasida vazifalar ijrosi yuzasidan o'tkazilgan o'rganishda aniqlangan yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar hamda qoloqliklarni bartaraf etish yuzasidan boshqaruvning barcha darajadagi rahbar va mutaxassislarning shaxsiy mas'uliyati va javobgarligini kuchaytirish bilan bog'liq chora-tadbirlar to'g'risida

(Xamrayev, Abdullayev, Xatamov, Alimov, Rizzayev, Siddiqov, Radjabov, Abdullayev, Qo'chqorov, Haydarov, Astanov, Xo'jaqulov, Qurbonov, Ishpulatov, Sheraliyev, Butunbayev, Xamrayev)

Kun tartibidagi masala bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vaziri Sh.Xamrayev tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yordamchisi A.Magrupov huzurida qishloq xo'jaligida suv va energiya manbalaridan oqilona foydalanish hamda yo'qotishlarni kamaytirish borasida belgilab berilgan vazifalar ijrosini ta'minlash masalalari muhokamasi yuzasidan joriy yil 24-may kuni o'tkazilgan 18-sonli yig'ilishda berilgan topshiriqlar va ularning ijrosini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar va navbatdagi vazifalar haqida hisoboti tinglandi.

Shuningdek, Suv xo'jaligi vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining 2025-yil 28-maydagi 03-PA 1/1-1705/23-sonli topshirig'i ijrosini ta'minlash maqsadida Nazorat rejasi ishlab chiqilganligi, O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi, Bosh prokuratura bilan kelishilgan holda vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlarda qishloq xo'jaligida suv va energiya manbalaridan oqilona foydalanish hamda yo'qotishlarni kamaytirish borasida vazifalar ijrosi yuzasidan o'tkazilgan o'rganishda aniqlangan yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar hamda qoloqliklarni bartaraf etish, kelgusida bunday holatlarning kelib chiqishining oldini olish bo'yicha "Yo'l xaritasi" ishlab chiqilganligi va tasdiqlanganligi to'g'risidagi axboroti eshitildi.

Shundan so'ng, O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi raisining birinchi o'rinbosari M.Abdullayev, Bosh prokuror o'rinbosari J.Xatamovlar muzokarada qatnashib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining 2025-yil 28-maydagi 03-PA 1/1-1705/23-sonli topshirig'i ijrosini ta'minlash hamda vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlarda qishloq xo'jaligida suv va energiya manbalaridan oqilona foydalanish hamda yo'qotishlarni kamaytirish borasida vazifalar ijrosi yuzasidan o'tkazilgan o'rganishda aniqlangan yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar hamda qoloqliklarni bartaraf etish bo'yicha navbatdagi vazifalar haqida tegishli ko'rsatma va tavsiyalar berdi.

Yig'ilishda, vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlarda qishloq xo'jaligida suv va energiya manbalaridan oqilona foydalanish hamda yo'qotishlarni kamaytirish borasida vazifalar ijrosi yuzasidan o'tkazilgan o'rganishda aniqlangan yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar hamda qoloqliklarni bartaraf etish borasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari, Nasos stansiyalari va energetika boshqarmalari hamda "Suvqurilishinvest" davlat muassasalari rahbarlarining hisobotlari eshitildi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining 2025-yil 28-maydagi 03-PA 1/1-1705/23-sonli topshirig'i ijrosini ta'minlash, Hisob palatasi, Bosh prokuratura va Adliya vazirligi tomonidan taqdim etilgan vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlarda qishloq xo'jaligida suv va energiya manbalaridan oqilona foydalanish hamda yo'qotishlarni kamaytirish borasida vazifalar ijrosi yuzasidan o'tkazilgan o'rganish davomida ko'rsatib o'tilgan xato va kamchiliklarni bartaraf etish, kelgusida bunday holatlarning kelib chiqishining oldini olish, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumatining hujjatlari bilan 2025-yilga belgilangan prognoz ko'rsatkichlar va topshiriqlarning ijrosini belgilangan muddatlarda, to'laqonli va sifatli ta'minlash yuzasidan boshqaruvning barcha darajadagi rahbar va mutaxassislarning shaxsiy mas'uliyati va javobgarligini kuchaytirish maqsadida hay'at yig'ilishi

Qaror qildi:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining 2025-yil 28-maydagi 03-PA 1/1-1705/23-sonli topshirig'i hamda Hisob palatasi, Bosh prokuratura va Adliya vazirligi tomonidan taqdim etilgan vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlarda qishloq xo'jaligida suv va energiya manbalaridan oqilona foydalanish hamda yo'qotishlarni kamaytirish borasida vazifalar ijrosi yuzasidan o'tkazilgan o'rganishda aniqlangan yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar hamda qoloqliklar bo'yicha ma'lumot ***rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.***

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining 2025-yil 28-maydagi 03-PA 1/1-1705/23-sonli topshirig'i ijrosini ta'minlash yuzasidan Nazorat rejasi ***ijro uchun qabul qilinsin.***

3. O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi, Bosh prokuratura va Suv xo'jaligi vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlarda qishloq xo'jaligida suv va energiya manbalaridan oqilona foydalanish hamda

yo'qotishlarni kamaytirish borasida vazifalar ijrosi yuzasidan o'tkazilgan o'rganishda aniqlangan yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar hamda qoloqliklarni bartaraf etish, kelgusida bunday holatlarning kelib chiqishining oldini olish bo'yicha **"Yo'l xaritasi" ijro uchun qabul qilinsin.**

4. Vazirning birinchi o'rinbosari T.Butunbayev, Vazir o'rinbosarlari R.Qarshiyev, O'.Sheraliyev, Z.Ishpulatovlarga vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlarda suv va energiya manbalaridan oqilona foydalanish hamda yo'qotishlarni kamaytirish borasida xato va kamchiliklar hamda qoloqliklarga yo'l qo'yganligi, bu borada vazirlik markaziy apparatining boshqarma va mustaqil bo'lim boshliqlari hamda vazirlik tasarrufidagi respublika va tizim tashkilotlari rahbarlariga nisbatan tartib, intizom va nazoratni susaytirib yuborganligi uchun **ogohlantirish e'lon qilinsin.**

5. Energiya manbalaridan oqilona foydalanish hamda yo'qotishlarni kamaytirish borasida xato va kamchiliklar hamda qoloqliklarga yo'l qo'yganligi uchun Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi huzuridagi Nasos stansiyalari va energetika boshqarmasi boshlig'i I.Ismoilovning **egallab turgan lavozimidan ozod etilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.**

6. Suv va energiya manbalaridan oqilona foydalanish hamda yo'qotishlarni kamaytirish borasida xato va kamchiliklar hamda qoloqliklarga yo'l qo'yganligi uchun **"Toshkentsuvqurilishinvest"** (O.Islomov), **"Sirdaryosuvqurilishinvest"** (J.Musurmonov) va **"Farg'onasuvqurilishinvest"** (O.Abdullayev) davlat muassasalari hamda Amu-Surxon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi huzuridagi Nasos stansiyalari va energetika boshqarmasi (T.Ko'chkinov), Qo'yi-Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi huzuridagi Nasos stansiyalari va energetika boshqarmasi (J.Nazarov) rahbarlariga **"hayfsan"** e'lon qilinsin.

7. Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish boshqarmasi boshlig'ining o'rinbosari D.Aliqulova hamda Yuridik bo'lim boshlig'i R.Sharopovlar Vazir o'rinbosari - Suv xo'jaligi obyektlarini ekspluatatsiya qilish agentligi direktori Z.Ishpulatov bilan birgalikda mazkur hay'at yig'ilishi qarori bilan intizomiy javobgarlikka tortilgan rahbarlarga nisbatan qo'llanilgan jazoni rasmiylashtirish bo'yicha **2 kun muddat ichida "Intizomiy jazo choralarini qo'llash to'g'risida"**gi buyruq loyihasini kiritsin.

8. Qoraqalpog'iston Respublikasi Suv xo'jaligi vaziri, irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari, Nasos stansiyalari va energetika boshqarmalari, Meliorativ ekspeditsiyalar, yirik gidrotexnik inshootlar va suv omborlari, irrigatsiya tizim boshqarmalari, **"Suvqurilishinvest"** hamda tumanlar **"Suv yetkazib berish xizmati"** davlat muassasalari rahbarlariga:

beshtun muddatda hay'at yig'ilishiga taqdim qilingan ma'lumotnomada qayd etilgan xato-kamchiliklar va qoloqliklarni zudlik bilan bartaraf etish, o'z yechimini kutayotgan mavjud muammolarni hal qilish yuzasidan **viloyat, tuman va har bir suv xo'jaligi obyekti kesimida chora-tadbirlar rejasini** ishlab chiqish, uning ijrosi haqida **har oy yakuni bilan** vazirlikka yozma ravishda axborot taqdim qilish;

beshtun muddatda Qoraqalpog'iston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi hamda irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalarida 3 ta hamda nasos stansiyalari va energetika boshqarmalarida 2 ta shtat birligidan iborat **"Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini shakllantirish va joriy etish"** sho'basini tashkil etish va qo'shimcha ravishda 3 nafar xodim birlashtirish;

beshtun muddatda 6 446 ta fermer xo'jaligi va **"Suv yetkazib berish xizmati"** davlat muassasalari o'rtasida shartnomalar tuzilishini ta'minlash, 7 247 ta fermer xo'jaligi tomonidan suv yetkazib berish to'g'risidagi shartnomalar bo'yicha qarzdorlikni qonunchilikka muvofiq undirish, 8 038 ta fermer xo'jaligiga nisbatan hisoblanmasdan qolgan suv solig'i hisoblanmagan soliq bazasini hududiy soliq organlariga taqdim qilish;

10 kun muddatda 2024-yil yakuni bilan shakllangan erkin qoldiq mablag'lari hisobidan tuman "Suv yetkazib berish xizmati" davlat muassasalariga 11 840 mln so'm mablag'lar o'tkazib berilishi yuzasidan viloyat va tuman mahalliy kengashlarining qarorlari qabul qilinishini tashkil etish;

mablag'larni to'liqligicha tuman "Suv yetkazib berish xizmati" davlat muassasalariga, Suv yetkazib berish xizmatlari tashkil etilmagan tuman (shahar)larda Suv xo'jaligi vazirligining byudjetdan tashqari alohida g'azna hisob varag'iga o'tkazib berilishini ta'minlash;

10 kun muddatda Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 9-fevraldagi 79-sonli qaroriga asosan, quyi bo'g'indagi sug'orish tarmoqlari va ulardagi inshootlarni xatlovdan o'tkazish, egasizligi aniqlangan ikki va undan ortiq suv iste'molchilariga xizmat ko'rsatuvchi ichki sug'orish tarmog'ini xizmat ko'rsatuvchi iste'molchilarga to'lovlarsiz berilishini ta'minlash;

10 kun muddatda davlat-xususiy sheriklik bitimiga muvofiq, hozirgi kunga qadar investitsiya majburiyatlarini bajarmagan xususiy sheriklarga ogohlantirish xatlarini yuborilishini hamda investitsiya majburiyatlarini bajarish yuzasidan xususiy sherik bilan birgalikda chora-tadbir rejasini ishlab chiqish;

har hafta yakuni bilan qishloq xo'jaligida suv va energiya manbalaridan oqilona foydalanish hamda yo'qotishlarni kamaytirish borasida vazifalar ijrosi yuzasidan o'tkazilgan o'rganishda aniqlangan yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar hamda qoloqliklarni bartaraf etish yuzasidan amalga oshirilgan ishlar haqida vazirlikka yozma ravishda axborot taqdim etish;

har oyda amaldagi davlat-xususiy sheriklik loyihalarining bitim majburiyatlaridan kelib chiqib, suv yetkazib berish talabnomasi va suv yetkazib berilganligini tasdiqlovchi dalolatnoma rasmiylashtirilgandan keyin moliyalashtirish hamda byudjet mablag'larini maqsadli sarflanishi yuzasidan tizimli monitoring yuritish;

har oyning 5 sanasiga qadar o'tgan oyda yetkazib berilgan suv bo'yicha tuzilgan ikki tomonlama dalolatnoma (xususiy sherik, tuman SEBX DM) va iste'mol qilingan elektr energiya bo'yicha uch tomonlama (xususiy sherik, tuman elektr tarmoqlari korxonasi, nasos stansiyalari va energetika boshqarmasi) solishtirma-dalolatnomalarni hamda investitsiya majburiyatlarini bajarilishi bo'yicha bajarilgan ishni tasdiqlovchi hujjatlar (shartnomalar, hisob-fakturalar, dalolatnomalar, xarajatlar smetasi va boshqa) xususiy sheriklardan olinib, Vazirlikning Davlat-xususiy sheriklik va autsorsing xizmatini rivojlantirish bo'limiga taqdim etib borish;

1-noyabrga qadar "Suv yetkazib berish" davlat muassasalari hisobidagi tarmoqlarni hamda klaster va fermer xo'jaliklari hisobidagi ichki sug'orish tarmoqlarini betonlashtirish ishlarini to'liq va sifatli tugallab, dalolatnoma asosida rasmiylashtirish;

suv xo'jaligi obyektlariga o'rnatilgan "Smart Water" ("Aqlli suv"), avtomatlashtirilgan boshqaruv, nasos agregatining elektr energiyasi iste'moli va suv sarfi hisobining monitoringi "onlayn" qurilmalari, meliorativ kuzatuv quduqlarining raqamli texnologiyalar orqali monitoring olib borish tizimidan maqsadli va samarali foydalanishini ta'minlash vazifalari yuklatilsin.

9. Vazirning birinchi o'rinbosari T.Butunbayev, Vazir o'rinbosarlari R.Qarshiyev, O'.Sheraliyev, Z.Ishpulatov, vazirlik markaziy apparatining boshqarma va mustaqil bo'lim boshliqlari hamda vazirlik tasarrufidagi respublika va tizim tashkilotlari rahbarlariga:

bir kun muddat ichida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining 2025-yil 28-maydagi 03-PA 1/1-1705/23-sonli topshirig'i hamda Hisob palatasi, Bosh prokuratura va Adliya vazirligi tomonidan taqdim etilgan vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlarda qishloq xo'jaligida suv va energiya manbalaridan oqilona foydalanish hamda yo'qotishlarni kamaytirish borasida vazifalar ijrosi yuzasidan o'tkazilgan o'rganishda aniqlangan yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar hamda qoloqliklar bo'yicha ma'lumotni har bir xodimga o'qib eshittirish, uning mazmun-mohiyatini yetkazish, kelgusida bunday holatlar

takrorlangan taqdirda O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 312-moddasiga muvofiq mehnat shartnomasini bekor qilishgacha bo'lgan intizomiy jazo choralari qo'llanilishi haqida rasman ogohlantirish orqali barcha darajadagi rahbar va xodimlarning shaxsiy mas'uliyati va javobgarligini kuchaytirish;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining 2025-yil 28-maydagi 03-PA 1/1-1705/23-sonli topshirig'i ijrosini ta'minlash yuzasidan Nazorat rejasi hamda O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi, Bosh prokuratura va Suv xo'jaligi vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan vazirlik va uning tizimidagi tashkilotlarda qishloq xo'jaligida suv va energiya manbalaridan oqilona foydalanish hamda yo'qotishlarni kamaytirish borasida vazifalar ijrosi yuzasidan o'tkazilgan o'rganishda aniqlangan yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar hamda qoloqliklarni bartaraf etish, kelgusida bunday holatlarning kelib chiqishining oldini olish bo'yicha "Yo'l xaritasi"da belgilangan topshiriqlar ijrosini ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan ishlarni **vazirning birinchi o'rinbosari huzurida har hafta juma kuni va vazir huzurida har haftaning dushanba kunlari** muhokama qilib borilishini tashkil etish;

har 10 kunda qishloq xo'jaligida suv va energiya manbalaridan oqilona foydalanish hamda yo'qotishlarni kamaytirish borasidagi vazifalar, shuningdek, 2025-yilga belgilangan prognoz ko'rsatkichlar va topshiriqlarning ijrosini vazirlikning ZOOM platformasi orqali videokonferensaloqa (VKA) shaklida tanqidiy ruhda muhokama qilib borish vazifalari topshirilsin.

10. Ichki audit boshqarmasi boshlig'i S.Alimardonov ushbu hay'at yig'ilishi qarori, Nazorat rejasi hamda "Yo'l xaritasi"da belgilangan topshiriqlar ijrosini ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan ishlar haqida har oy yakuni bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga, Vazirlar Mahkamasiga, Hisob palatasi va Bosh prokuraturaga axborot taqdim qilib borsin.

11. Mazkur hay'at yig'ilishi qarori topshiriqlarining ijrosini tashkil etishni vazirning barcha o'rinbosarlari zimmasiga yuklab, uning nazoratini o'z zimmamda qoldiraman.

Qaror loyihasi hay'at a'zolari tomonidan bildirilgan takliflar asosida to'lg'azildi va bir ovozdan qabul qilindi.

Hay'at yig'ilishi yakunida hay'at raisi vazirlik tasarrufidagi respublika va tizim tashkilotlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Suv xo'jaligi vaziri, irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari, Nasos stansiyalari va energetika boshqarmalari, Meliorativ ekspeditsiyalar, irrigatsiya tizim boshqarmalari, yirik gidrotexnik inshootlar va suv omborlari, "Suvqurilishinvest" hamda tumanlar "Suv yetkazib berish xizmati" davlat muassasalari rahbarlariga bugungi hay'at yig'ilishi qabul qilgan qaror asosida **bir kun muddat ichida** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumatining hujjatlari bilan 2025-yilga belgilangan prognoz ko'rsatkichlar va topshiriqlarning ijrosini belgilangan muddatlarda, to'laqonli va sifatli ta'minlash yuzasidan boshqaruvning barcha darajadagi rahbar va mutaxassislarning shaxsiy mas'uliyati va javobgarligini kuchaytirish yuzasidan tegishli topshiriq va tavsiyalar berdi.

Hay'at raisi



Sh. Xamrayev